



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY RISKARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Shamsiev Diyor Doniyor o'g'li

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 7

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a16

ABSTRACT

Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy riskarni boshqarishning ahamiyati va funksional elementlarining nazariy asoslari, afzalliklari va tahlili hamda rivojlantirish istiqbollari takomillashtirish yuzasidan fikr va mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarish jamiyatni muvaffaqiyatli boshqarish va uning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning zaruriy qismi ekanligini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy riskarni boshqarishni takomillashtirish istiqbollari mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

KEYWORDS

aksiyadorlik jamiyatlari, risklar, tadbirkorlik, moliyaviy risklar, biznes, kredit risklari, riskni minimallashtirish, diversifikatsiya.

Kirish (Introduction/Введение)

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy riskni boshqarish jamiyatning moliyaviy ahvoli barqarorligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Aksiyadorlik jamiyatlari ko'pincha turli xil moliyaviy risklarga duch kelishadi, masalan, valyuta riski, foiz stavkasi riski, kredit riski, operatsion risk va boshqalar. Moliyaviy risklarni boshqarish ushbu risklarning salbiy ta'sirini minimallashtirishga va jamiyat kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlashga imkon beradi. Bundan tashqari, moliyaviy riskni boshqarish aksiyadorlar va investorlarning manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi, shu bilan birga aksiyalar rentabelligini barqaror ushlab turadi.

Moliyaviy risklar foyda va aksiyalar rentabelligi o'rtasidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu risklar foiz stavkalarining o'zgarishi, valyuta o'zgarishi, inflyatsiya, kredit riski va jamiyatning moliyaviy holatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy risklarning o'zgarishi investorlarning jamiyatning kelajakdagi daromadlari haqidagi taxminlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin, bu esa aksiyalar narxiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, foiz stavkalarining ko'tarilishi, qarzga olingan kapital xarajatlarning ko'payishi tufayli jamiyat daromadlarining pasayishiga olib keladi, bu esa aksiyalarning daromadliligi pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (анализ использованной литературы. Literature review).

Zamonaviy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy mohiyati va unga berilgan ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular mohiyatan biri-biriga yaqin bo'lsada, biroq shaklan turli-tuman ifoda etilgan. Shu jihatdan, aksiyadorlik jamiyatlarning iqtisodiy mohiyatini atroflicha o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa aksiyadorlik jamiyatlariga: "Daromad topish maqsadida hissadorlik tamoyiliga binoan uyushgan sherikchilik jamiyati", sifatida ta'rif berilgan [1]. Ushbu ta'rifda "sherikchilik jamiyati" aksiyadorlik jamiyatining mohiyatini buzilishiga sabab bo'lmoqda, chunki emitent tomonidan muomalaga emissiya qilingan aksiyalarni sotib olgan shaxs "aksiyador" sifatida jamiyatning boshqaruvida ishtirok etish bilan birga, sotib olgan aksiya uchun ma'lum miqdorda dividend oladi.

Iqtisodchi olim A.I.Kaminkaning fikricha «Aksiyadorlik jamiyati (AJ) - ustav kapitali ma'lum miqdordagi aksiyalarga bo'lingan tijorat tashkilotidir. Kichik biznes odatda bankdan rivojlanish uchun pul oladi yoki uni investor uchun yuqori riskli kraudsoring platformalari orqali olishga harakat qilsa-da, yirik biznes fond bozoriga o'tadi»[2]. V. A. Shanitsinning yozishicha, «aksiyadorlik jamiyati-bu jamiyatning tashkiliy-huquqiy shakli bo'lib, u o'z majburiyatlari bo'yicha faqat o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi» [3].


V.I.Andryushchenko, E.V.Kostikova fikricha aksiyadorlik jamiyati deganda «aksiyalarni sotish orqali amalga oshiriladigan turli shaxslarning mablag'larini markazlashtirish (kapitalni birlashtirish) orqali tashkil etiladigan jamiyatlarning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri» tushuniladi [4].

V.Galanovanning qayd etishicha: «Aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy yuksalishning dvigateli bo'lib, faqat aksiyadorlik jamiyati shaklida bo'lgan yirik jamiyatlar mamlakatda zamonaviy bozor munosabatlarini va iqtisodiy erkinlikni ta'minlaydi»[5]. Ushbu ta'rifda muallif aksiyadorlik jamiyatlarining iqtisodiy ahamiyati yoki tashkiliy-huquqiy holatiga emas, balki ularning iqtisodiyotda tutgan o'rni ko'proq e'tibor bergan.

V.Kolesnikov va V.Torponovskiyning keltirishicha: «Aksiyadorlik jamiyati deganda, ustav kapitali ma'lum miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti bo'lib, ushbu aksiyalar o'z egalariga ma'lum huquqlarni taqdim etishi tushuniladi»[6]. Mualliflarning keltirgan ta'rifda aksiyadorlik jamiyatlarning tijorat sub'ekti ekanligiga e'tibor berilmagan. Yana bir iqtisodchi olim S.Baranenkoga ko'ra «Aksiyadorlik jamiyati- (korporatsiya) o'z ishtirokchilari (aksionerlari) manfaatlarini va qiziqishlarini himoyasi uchun tashkil qilingan mustaqil yuridik shaxsdir»[7], deya o'z fikrini bildirgan.

A.A.Abgaryanga fikricha «Xo'jalik yuritishning aksiyadorlik shakli kapitalning jamiyatlar, tarmoqlar, hududlar, davlatlar, iqtisodiy birlashmalar va mintaqalararo erkin oqishini ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotning investitsion jozibador yo'nalishlariga yirik moliyaviy resurslarni jalb etish va sur'atli rivojlantirish imkoniyatini beradi»[8] deya fikr bildirdi.

Mahalliy olimlardan, professor I.Butikov: «Aksiyadorlik jamiyati shaklida xo'jalik yuritish boshqa tashkiliy-huquqiy shakllarga qaraganda qator ustunliklarga ega. Birinchi galda aksiyadorlik jamiyatlari kichik, o'rta va yirik sarmoyadorlarning katta miqdordagi mablag'larini bir joyga to'plash imkonini beradi. Ushbu sarmoyadorlar o'z ixtiyorida aksiyalar miqdoriga yarasha jamiyatni boshqarishda ishtirok etishi, qo'ygan sarmoyasining hajmiga qarab daromad olishi mumkin»[9].



1-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarini samarali boshqarishning tasniflashi¹

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, aksiyadorlik jamiyatlarini iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular investitsiyalarni jalb qilish va biznesni rivojlantirishga yordam beradi. Ular jismoniy shaxslar va investorlarga jamiyatlar aksiyalarini sotib olishga imkon beradi, bu esa risklarni taqsimlash va investitsiyalar portfelini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, korporativ boshqaruv orqali jamiyatlarning shaffofligi va boshqaruvini ta'minlaydi, bu esa biznesning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, ular investorlar uchun aktivlarning likvidligini ta'minlaydi, bu ularga ochiq bozorda aksiyalarni erkin sotib olish va sotish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, Aksiyadorlik jamiyati (AJ) - bu kapitalga egalik qilish ma'lum miqdordagi aksiyalarga bo'lingan yuridik shaxsning shaklidir. Aksiyadorlik jamiyati o'z aksiyadorlariga aksiyadorlar yig'ilishlarida ovoz berish va jamiyat foydasidan dividendlar olish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. Aksiyadorlik jamiyati aksiyalari investorlarning keng doirasiga sotilganda ochiq (ommaviy) yoki cheklangan miqdordagi shaxslarga sotilganda yopiq (xususiy) bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy kategoriya jihatdan moliyaviy risklarni qarz mablag'larining tashkilot kapitaliga nisbati sifatida aniqlash mumkin. Shu bilan birga, jamiyat tashqi kreditorlarga qanchalik bog'liq bo'lsa, moliyaviy risk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Moliyaviy risklarni boshqarishning maqsadi ushbu risk bilan bog'liq yo'qotishlarni minimallashtirishdir. Yo'qotishlar pul ko'rinishida baholanishi mumkin. Ularning oldini olish choralarini ham baholanadi. Moliyaviy menejer ushbu ikkita bahoni muvozanatlashi va riskni minimallashtirish nuqtai nazaridan bitimni qanday qilib eng yaxshi tarzda amalga oshirishni rejalashtirishi kerak. Moliyaviy risklarni boshqarish aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruvining muhim tarkibiy qismidir, chunki u jamiyatning barqarorligiga, shuningdek uning aksiyadorlari manfaatlariga ta'sir qilishi mumkin.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, moliyaviy risklar har qanday iqtisodiyot va tadbirkorlikning muqarrar qismidir va ushbu risklarni mohirona boshqarish muvaffaqiyatli biznes uchun muhimdir.

Boshqa olimlar mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun moliyaviy vositalar va bozorlarni qat'iy tartibga solish zarurligini ta'kidlashlari mumkin. Bu borada xorijlik iqtisodchi olimlar G. S.Oldfield va A. M.Santomerolarning fikricha, «Moliyaviy risk-bu moliyaviy qism bilan bog'liq bo'lgan risk turi bo'lib, moliyaviy o'zgaruvchilar tufayli

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni anglatadi»[10]. Bu foiz stavkasini o'zgartirish riski, valyuta riski, kredit riski yoki likvidlik va kapital riski kabi ichki biznes kabi moliyaviy bozor riski bo'lishi mumkin. Moliya institutlari ma'lum turdagi risklarga duch kelishi mumkin: to'g'ri tashkil etilgan biznes bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lgan risklar, ba'zi moliyaviy vositalardan foydalangan holda boshqalarga o'tkazilishi mumkin bo'lgan risklar va jamiyat tomonidan boshqarilishi mumkin bo'lgan risklar.

D.A.Bendarskiyning ta'kidlashicha, «Har bir aksiyadorlik jamiyati faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari - uning operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyati, sohaga mansubligi, mintaqaviy joylashuvi tufayli moliyaviy risklarni tasniflashning xilma-xilligi risklarni boshqarish tizimiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi»[11].

M.Shamoninaning fikricha «Risklarni tahlil qilish usullari va ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishga imkon beradi, bu esa dastlabki bosqichda jamiyatni kutilmagan yo'qotishlardan himoya qilish uchun "risksizlik yostiqlari" bilan ta'minlaydi»[12].

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy risklarini boshqarish usullari tizimida asosiy rol ularni kamaytirishning ichki mexanizmlariga tegishlidir. Moliyaviy risklarni kamaytirishning ichki mexanizmlari jamiyat doirasida saylanadigan va amalga oshiriladigan salbiy oqibatlarini minimallashtirish usullari tizimidir. Ichki kamaytirish mexanizmlaridan foydalanishning asosiy ob'ekti, qoida tariqasida, ruxsat etilgan moliyaviy risklarning barcha turlaridir.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksialash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarishni qo'llab-quvvatlashning afzalliklari hamda tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishni mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

Olingan natijalar (Results/Результаты). Olib borilgan tahlillar natijasida Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarishni takomillashtirish o'zgaruvchan bozor sharoitlariga, tartibga soluvchi talablarga va paydo bo'ladigan risklarga moslashish uchun moliyaviy risklarni boshqarish amaliyotining doimiy monitoring qilish, baholash va vaqt o'tishi bilan xavflarni boshqarish samaradorligini saqlab qolish va o'sish darajasi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarini samarali boshqarishga to'siq bo'layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy riskni tushunish, baholash va kamaytirish jamiyatning uzoq muddatli muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Moliyaviy risk jamiyatning kreditlarni o'z vaqtida to'lashi, sog'lom miqdordagi qarzni to'lashi yoki mahsulotlarni o'z vaqtida etkazib berishi kabi moliya bilan bog'liq maqsadlarini muvaffaqiyatli bajarishiga to'sinlik qilishi mumkin. Moliyaviy riskga nima sabab bo'lganini tushunib, uni oldini olish uchun choralar ko'rilishi natijasida jamiyat kuchli operatsion ko'rsatkichlarga ega bo'ladi va yaxshi daromad keltiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari duch keladigan yoki duch kelishi mumkin bo'lgan riskni tushunish va hal qilish jarayoni moliyaviy risklarni boshqarish deb nomlanadi. Moliyaviy risklarni boshqarish nafaqat riskning oldini olish, balki tashkilot duch kelishi mumkin bo'lgan yoki qabul qilishga tayyor bo'lgan risk turini aniqlashni ham anglatadi.

Bundan tashqari, bu biznes har qanday holatda ham oldini olishga intiladigan risk turini tan olishni ham o'z ichiga oladi. Umuman olganda, risklarni boshqarish-bu biznes qabul qilishga yoki undan qochishga tayyor bo'lgan risklar bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqishdir.

Moliyaviy risklarni boshqarish haqida gap ketganda, unda harakatlar rejasini ishlab chiqish juda muhimdir. Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalar, siyosatlar va amaliyotlar puxta o'ylangan harakatlar rejasini tuzishga yordam beradi. Harakatlar rejasini xodimlarga nima qila olishlari va qila olmasliklari, qabul qilinishi kerak bo'lgan qarorlar, umumiy javobgarlik va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklar haqida ma'lumot beradi.

Risklarni aniqlash va boshqarish qiyin jarayon bo'lib. U noto'g'ri baholangan taqdirda, risk nafaqat jamiyat balki butun iqtisodiyot uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ushbu jihatlarlar aksiyadorlik jamiyatlari moliyasini samarali boshqarish va moliyaviy risklarni minimallashtirish uchun yordam beradi. Shuningdek, ushbu tasniflarning har biri aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarish usullari va tamoyillarini batafsilroq tushunish uchun ishlatilishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni baholash – bu iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, raqobatbardosh vaziyat, boshqaruv qarorlari va boshqa omillar natijasida aksiyadorlar hamda investorlar uchun yo'qotish yoki salbiy moliyaviy oqibatlariga olib kelish ehtimolini aniqlash jarayonidir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risk jamiyatning iqtisodiy faoliyati sohasida namoyon bo'ladi. Moliyaviy risk jamiyatning resurslari, kapitali, daromadlari va moliyaviy natijalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida mumkin bo'lgan pul yo'qotishlari bilan tasniflanadi.

Umuman olganda, risklarning xilma-xilligi tufayli risklarni tasniflash ancha murakkab metodologik muammoni keltirib chiqaradi. Bugungi kunga kelib, qonunchilikda moliyaviy risklarning ta'rifi yo'q, ba'zi normativ hujjatlarda moliyaviy risklarning turli tasniflari mavjud. Bugungi kunda risklarni boshqarish bo'yicha barcha tadqiqotchilar Bazel Qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan moliya bozori uchun risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarga e'tibor qaratishmoqdalar.

Mavjud risklarni boshqarish amaliyotida ushbu moliyaviy risklarning aksariyat turlari uchun boshqarish va ta'sir qilish usullari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, investorning xatti-harakati riski, xedjrlash riski, brokerlik faoliyatini brokerlarning o'z operatsiyalari bilan birlashtirish riski, marja kreditlash riski kabi ba'zi bir o'ziga xos risk turlari zarur bo'lgan umume'tirof etilgan boshqaruv usullariga ega emas.

1-jadval

Moliyaviy ko'rsatkichlar qiymatlarida individual moliyaviy risklarni sifatini baholash tartibi²

№	Moliyaviy ko'rsatkichlar	Risk turlari	Ko'rsatkichlar qiymati	Riskni baholash
1	Mutlaq likvidlik koeffitsienti	Likvidlikni yo'qotish riski	0,1 dan kam 0,2 -0,4 0,5 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
2	Tanqidiy baholash (muddatli likvidlik)	Kredit riski	0,9 dan kam 1,0-1,9 2 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
3	Joriy likvidlik koeffitsienti	To'lovga layoqatsizlik riski	0,9 dan kam 1,0-2,0 2,1 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
4	Mablag'larni safarbar qilishda likvidlik koeffitsienti	Likvidlikni yo'qotish riski	0,4 dan kam 0,5-0,7 0,8 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
5	O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlash	To'lovga layoqatsizlik riski	0,1 dan kam 0,2-0,4 0,5 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
6	Moliyaviy mustaqillik (avtonomiya) koeffitsienti	Likvidlikni yo'qotish riski	0,4 dan kam 0,5-0,7 0,8 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
7	O'z aylanma mablag'larining manevrliligi	Moliyaviy barqarorlikni pasaytirish riski	0,1 dan kam 0,2-0,4 0,5 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
8	Qarz va o'z mablag'lari nisbati (leveraj koeffitsienti)	To'lovga layoqatsizlik riski	0,7 dan kam 0,8-1,5 1,6 dan ortiq	Yuqori O'rta Past
9	Moliyaviy barqarorlik	Moliyaviy barqarorlikni pasaytirish riski	0,6 dan kam 0,7-1,9 1,0 dan ortiq	Yuqori O'rta Past

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy riskni baholashning bir necha usullari mavjud, jumladan:

1. Moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usuli jamiyatning moliyaviy holatini va qarzlarini to'lash qobiliyatini baholash uchun uning moliyaviy hisobotlarini tahlil qiladi.

2. Statistik modellashirish usullari ushbu yondashuv tarixiy ma'lumotlarga asoslangan moliyaviy risklarni bashorat qilish uchun statistik modellardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

3. Stsenariy tahlili usuli turli xil stsenariylarning mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'rishga imkon beradigan turli xil stsenariylarga asoslangan moliyaviy riskni baholaydi.

4. Stoxastik modellashirish usuli ushbu yondashuv turli xil moliyaviy hodisalarning yuzaga kelish ehtimolini va ularning jamiyatga ta'sirini modellashirish uchun stoxastik jarayonlardan foydalanadi.

5. Kredit skoringgi usuli qarz oluvchilarning kreditga layoqatini ular to'g'risidagi ma'lumotlarni statistik qayta ishlash asosida baholash uchun ishlatiladi.

Ushbu usullarning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega hamda ko'pincha moliyaviy riskni to'liqroq baholash uchun birgalikda qo'llaniladi. Shuningdek, hozirgi vaqtda jamiyatning moliyaviy risklarini boshqarishning o'ziga xos qulay vositalarini ishlab chiqish muammosi

muhim ahamiyat kasb etadi. Riskni baholash qobiliyati ma'lum bir jamiyat nuqtai nazaridan risklarni boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Moliyaviy holat ko'rsatkichlari asosida har bir o'rganilayotgan yil uchun vertikal tahlilni alohida-alohida o'tkazish va qanday risk turlari hamda jamiyatga qaysi darajada xos ekanligini aniqlash mumkin. Bu o'rganilayotgan har bir davr uchun jamiyatning moliyaviy risklarini har tomonlama baholashga imkon beradi va ularni oldindan aniqlashni talab qilmaydi, chunki har bir ko'rsatkich riskga mos keladi. Bunday risklarni baholashni sifat – miqdoriy deb hisoblash mumkin, chunki u yoki bu risk bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsientning miqdoriy qiymati “yuqori”, “o'rta” yoki “past” kabi risklarni sifatli baholashga ta'sir qiladi.

Natijalar interpretatsiyasi (Discussion/Обсуждение).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quyidagi savollar paydo bo'ldi va ularga quyidagicha javoblar shakllandi: Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z faoliyati va investitsiyalari bilan bog'liq kredit riskini kamaytirish uchun qanday strategiyalardan foydalanishi mumkin? Bozor tavakkalchiligini boshqarishning eng yaxshi amaliyotlari, jumladan, foiz stavkalari, valyuta kurslari va tovar narxlarining o'zgarishidan himoyalash strategiyalari qanday? Aksiyadorlik jamiyatlaridagi moliyaviy risklarni aniqlash va ustuvorligini aniqlashda risklarni kompleks baholash qanday rol o'ynaydi? Qanday qilib aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni nazorat qilish va javobgarlikni kuchaytirish uchun boshqaruv tuzilmalarini va ichki nazoratni kuchaytirishi mumkin? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarish tizimining iqtisodiy mohiyati shundaki, u potentsial yo'qotishlarni minimallashtirish va jamiyatning moliyaviy ahvoli barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Uning asosiy maqsadi jamiyat faoliyati bilan bog'liq moliyaviy risklarni aniqlash va baholash, shuningdek ularni boshqarish strategiyasi va usullarini ishlab chiqishni anglatadi. Moliyaviy risklarni nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, shu jumladan moliyaviy muhitdagi o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilishga yordam beradi. Moliyaviy risklarni kamaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilish, shu jumladan xedjrlash vositalarini tanlash (yo'qotishdan himoya qilish) hamda axborot shaffofligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun moliyaviy risklar to'g'risida o'z vaqtda ma'lumot berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, risklarni boshqarish tizimi – bu risklarni aniqlash, baholash, risklarga javob berish, shuningdek ularning darajasini monitoring qilish va nazorat qilish bo'yicha qoidalar, hujjatlar va tadbirlar majmuidir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni boshqarish tizimining asosiy maqsadi jamiyatning asosiy faoliyati ishonchli ishlashini ta'minlash, ularning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, aksiyadorlar, mijozlar, regulyator va boshqa manfaatdor tomonlar oldidagi majburiyatlarning bajarilishini kafolatlashdir. Moliyaviy risklarni boshqarish tizimi aksiyadorlik jamiyatlarida uchun muhim iqtisodiy ahamiyatga ega, chunki bu ularning raqobatbardoshligi, barqarorligi va investorlar uchun jozibadorligini oshirishga yordam beradi.

Moliyaviy risklarni boshqarish tizimlari aksiyadorlik jamiyatlarida muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'zlarining moliyaviy risklarini samarali boshqarish va o'z faoliyatining barqarorligi va barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Bunday tizimlarning iqtisodiy ahamiyati quyidagicha:

Birinchidan, yo'qotishlarni minimallashtirish tizimi, moliyaviy risklarni boshqarish tizimlari valyuta kurslari, foiz stavkalari, xom ashyo narxlar va boshqa omillarning o'zgarishi bilan bog'liq mumkin bo'lgan yo'qotishlarni oldini olishga yordam beradi. Bu jamiyatlarga rentabellik va barqarorlikni saqlashga imkon beradi.

Ikkinchidan, shaffoflikni oshirish tizimi, moliyaviy risklarni boshqarish jamiyatning moliyaviy faoliyati ustidan shaffoflik va nazoratni kuchaytiradi, bu esa investorlar va kreditorlarning ishonchini oshiradi.

Uchinchidan, investitsiya muhitini yaxshilash tizimi, moliyaviy risklarni boshqarishning samarali tizimiga ega bo'lish jamiyatning investorlar va tahlilchilar tomonidan baholanishiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa uning bozor qiymatining oshishiga olib keladi.

To'rtinchidan, qarzga olingan kapital xarajatlarni kamaytirish tizimi, moliyaviy risklarni boshqarish tizimi yaxshi bo'lgan jamiyatlar past

darajadagi risk tufayli yaxshiroq kreditlash yoki investitsiyalarni jalb qilish shartlarini olishlari mumkin.

References:

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-том, 190-бет. 2000 йил
2. Каминка А.И. Акционерные компании. Юридическое исследование. СПб., 2002. Т. 1. С. 14
3. Пособие для международного предпринимателя / Под. ред. В.А. Шаницына. Краснодар, 1990. С. 78.
4. Андрющенко В.И., Костикова Е.В. Книга акционера для чтения и принятия решений. М., 1994. С. 8
5. Галанова В.А. Акционерное дело. Учебник. –М.: Финансы и статистика, 2003. -544с.: 19 ст.
6. Колесников В.И. Ценные бумаги. Учебник. –М.: Финансы и статистика, 1999. -410 с
7. Бараненко С.П. Корпоративный менеджмент: учебное пособие. –М.: ЗАО Центрполиграф, 2010. 319 с. 93 б
8. Абгарян А.А. Развитие российского рынка акционерного капитала в современных условиях. Дисс....к.э.н., –Москва, 2015. –С.13.
9. Бутиков И.Л. Қимматли қозғалар бозори. Дарслик.-Т.: Консаудитинформ, 2001.
10. Oldfield, G. S., & Santomero, A. M. (1995). The place of risk management in financial institutions. Wharton School, University of Pennsylvania.
11. Бендарский Д.А. Сущность и классификация рисков для научно-производственного предприятия атомной отрасли // Экономический анализ: теория и практика. № 2014. 26. С. 54–66
12. Шамонина М. Международные стандарты управления рисками: проблемы адаптации. URL: <http://mof.ru/article/134.html>...